

---

## DO'STLIK MAHALLASIDA YOSHLAR SAYLI TAASSUROTLAGA BOY BO'LDI

"Yangi O'zbekiston yoshlari birlashaylik" shiori ostida "Yoshlar sayli"da tumandagi "Do'stlik", "Furqat", "Suvboshi", "Toshloq" hamda "Shodlik" MFYlarda istiqomat qilayotgan yoshlar ishtirok etdi.

Mahalla yoshlar yetakchilari tashabbusi, hamkorligida tashkil etilgan ushbu tadbir orqali 300 nafarga yaqin yoshlar jalb etildi.

Yoshlarning bo'sh vaqtini maroqli o'tkazish, ular ongida vatanparvarlik, shukronalik va milliy bunyodkorlik g'oyalarini singdirish, ular orasida jinoyatchilik, huquqbuzarliklarni oldini olish, mahalla yoshlari o'rtasida ommaviy sport va jismoniy tarbiyani keng rivojlantirish maqsadida tashkil etilgan ko'ngil ochar konsert dasturlari, sharqiy harbiy okrug qismini chiqishlari va zaxiradagi ofiser nuroyniylarning suhbatlari tadbir ishtirokchilarida iliq taassurotlar qoldirdi.

2023-06-26 07:48:58